

SABABI NUZUL ILMINING QUR’ONI KARIMNI O’RGANISHDAGI AHAMIYATI

Nazimjonova Dilzoda

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qur’oni Karim oyatlari va suralarining mazmunini o‘rganishda sababi nuzul ilmining ahamiyati hamda ushbu ilmning mufassirlar ilmiy faoliyatidagi o‘rni haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Qur’on, sababi nuzul, oyat, sura, hadis, tafsir, mufassir.

Islom dinining eng asosiy manbasi bevosita Qur’oni Karimdir. Undan anglashiladigan ma’nolarni yanada yaxshi tushunishda, undan ko‘zlangan maqsadlarni anglashda hadisi shariflar dastur ul amal vazfasini o‘taydi. Qur’on oyatlarining nima sababdan nozil bo‘lishini o‘rganish esa o‘sha davr zamon va makonini yanada yaxshi bilishga oyat yoki suraning mohiyatini yanada kengroq tushunishga, undan shar’iy hukmlar chiqarishga ko‘maklashadi. Qur’ondagi suralar va oyatlarning ba’zilari hech qanday sababsiz insonlarni hidoyatga chorlash uchun va ularni tarbiyalash uchun nozil qilingan. Ba’zilarining nozil bo‘lishiga esa odamlarning Rasulullohga bergan savollari yoki biror voqea, hatti-harakatlari sabab bo‘lgan va ushbu sabablar Qur’on ilmlari tarkibida mustaqil yo‘nalish sifatida hijriy 3-asrga kelib sababi nuzul debyuritilib o‘rganila boshlandi.

Ibn Jarir, Vohidiy, Firyobiy va Ibn Abu Hotim Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar: “Yahudiylardan Shos ibn Qays ismli odam Avs va Hazraj qabilasiga mansub arablarning majlis qurib, gaplashib o‘tirgan joylaridan o‘tdi. Johiliyat vaqtida bir-biriga adovati kuchli bo‘lgan bu kishilarning bunday ulfat bo‘lib o‘tirishlari uning g‘ashiga tegdi va “Bular birlashsalar, biz bular bilan yonma-yon

yashay olmay qolami”, deb, bir yahudiy bolani chaqirdi va unga: “Arablarning ichiga borib o‘tirgin-da, ularga “Bu’os” kunini eslat va u haqdagi she’rlardan o‘qib ber”, deb buyurdi. (“Bu’os” kunida Avs va Hazraj qabilalari qattiq urushib, Avs g‘olib chiqqan edi.) Haligi yahudiy bola Shosning aytganini qildi. O‘tirganlar tortishib, achchiqlashib, urushib ketishdi. “Qurol!!! Qurol!!!” deb baqirishdi. Bu mojaro Payg‘ambar alayhissolatu vassalomga borib yetganda, huzurlaridagi muhtojlari ansoriylarni olib, ularning oldiga bordilar. Ularga: “Men ichingizda turib, Alloh sizlarni Islom bilan ikrom qilganidan keyin, johiliyat ishini kesganidan keyin, orangizga ulfatlikni solganidan keyin ham johiliyat da’vosini qilaszlarmi?” dedilar. Odamlar dushmanning gapiga uchib, shayton yo‘liga yurganlarini anglab yetdilar. Qurolni tashlab, yig‘lab, quchoqlashib ketdilar. Rasululloh bilan birga itoatkor holda qaytdilar. Shunda **Oli Imron surasidagi ushbu oyat nozil bo‘ldi:**

وَأَعْتَصِمُوا بِحَبْلِ اللَّهِ جَمِيعًا وَلَا تَفَرَّقُوا وَاذْكُرُوا نِعْمَتَ اللَّهِ عَلَيْكُمْ إِذْ كُنْتُمْ أَعْدَاءً فَأَلَّفَ بَيْنَ قُلُوبِكُمْ فَأَصْبَحْتُمْ
بِنِعْمَتِهِ إِخْوَانًا وَكُنْتُمْ عَلَىٰ شَفَا حُفْرَةٍ مِنَ النَّارِ فَأَنْقَذَكُمْ مِنْهَا كَذَلِكَ يُبَيِّنُ اللَّهُ لَكُمْ آيَاتِهِ لَعَلَّكُمْ تَهْتَدُونَ ١٠٣

“Barchangiz Allohning arqonini mahkam tuting va bo‘linib ketmang. Va Allohning sizga bergan ne‘matini eslang: bir vaqtlar dushman edingiz, bas, qalblaringizni ulfat qildi. Uning ne‘mati ila birodar bo‘ldingiz. O‘tli jar yoqasida edingiz, sizni undan qutqardi. Alloh sizga O‘z oyatlarini ana shunday bayon qiladi. Shoyadki, hidoyat topsangiz” (103-oyat).

Demak, oyatdagi xitob aslida barcha Islom ummatiga bo‘lsa ham, tushayotgan paytda madinalik Avs va Xazraj qabilalariga qaratilgan edi. Ularning oralarida bo‘lib o‘tgan hodisa Islom ummatiga qilinadigan umumiy amrning o‘sha vaqtda nozil bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, oyatning nozil bo‘lish sababini o‘rganish undan ko‘zlangan murodni yanada oydinlashtiradi.

Vahiy nozil bo‘lish sabablari haqidagi ilm mustaqil va yaxlit fan bo‘lib, o‘z nazariyasi, qo‘llanilishi va masalalariga ega. Uning Qur‘on ilmlari ichida alohida fan sifatida ajralgani uning boshqa fanlardan uzilganligini anglatmaydi, aksincha, bu ilmlar Qur‘oni Karimni yaxshiroq anglashga xizmat qilish uchun birlashtirilgan.

Shubhasiz, hech bir mufassir sababi nuzullarni bilmay turib tafsir yozishga qo‘l urmaydi. Al-Vohidiy ta’kidlaganidek: “Bu eng to‘liq amal qilinishi kerak bo‘lgan va birinchi navbatda qilinadigan ishdir”. Bundan anglashiladiki, oyatning nozil bo‘lish sababini bilmay turib, oyatning tafsirini va uning murodini bayon qilishdan ehtiyot bo‘lish kerak. Quyidagi misolda sababi nuzulning oyatning tafsiridagi ahamiyatini ko‘rib chiqamiz: Alloh taolo Baqara surasida marhamat qiladi:

وَلِلَّهِ الْمَشْرِقُ وَالْمَغْرِبُ فَأَيُّمَا تُلُؤُوا فَنَّمَّ وَجَّهُ اللَّهُ إِنَّ اللَّهَ وَسِعَ عِلْمَهُ ۝ ۱۱

“Mashriqu mag‘rib Allohnikidir, qayoqqa yuzlansan-giz, Allohning yuzi o‘sha yerda. Albatta, Alloh qamrovi kengdir, o‘ta biluvchidir”(115-oyat).

Ushbu oyatning sirtqi ma’nosiga qaraladigan bo‘lsa, namoz o‘qiydigan odam qayoqqa qarab o‘qisa ham bo‘laverishi kelib chiqadi. Qiblaga qarab namoz o‘qish shart bo‘lmay qoladi. Ammo sahobai kiromlardan qilingan rivoyat bu oyatning haqiqiy va to‘g‘ri ma’nosini anglab yetishga yordam beradi.

Ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: “U kishi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam nafl namozni ulovlari ustida u qayoqqa yuzlansa, o‘sha yoqqa qarab o‘qir edilar. O‘zlari Makkadan Madinaga kelayotgan edilar, dedi. So‘ngra Ibn Umar ”Mashriqu mag‘rib Allohnikidir” oyatini qiroat qildi va: – Ushbu oyat mana shu haqda nozil bo‘lgan”, dedi”.

Omir ibn Rabi’a roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam bilan zulmatli kechada safarda edik. Qibla qaysi tarafda ekanini bila olmadik. Bizdan har bir kishi o‘z qarshisiga qarab namoz o‘qidi. Tong ottirganimizdan keyin buni Nabiy sollallohu alayhi vasallamga zikr qildik. Bas, “...qayoqqa yuzlansangiz, Allohning yuzi o‘sha yerda” oyati nozil bo‘ldi”. Ikkalasini Termiziy rivoyat qilgan. Mana shu rivoyatlar bilan oyatning ma’nosi to‘g‘ri tushunildi va haqiqati ayon bo‘ldi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, Ushbu ilm Qur’on oyat va suralarini imkon qadar kengroq tushunishga yordam beradi, shuning uchun mufassirlar bu orqali tushunishdagi muammoni bartaraf qiladilar. Sababi nuzul noaniqliklarni

aniqlaydi, mavhumlikni ketkazadi, o‘xshashlikni yo‘qotadi. Vahiy sababini bilish oyatni tushunishga yordam beradi, chunki sababni bilish ilmni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. الإلتقان في علوم القرآن: للحافظ جلال الدين عبد الرحمن السيوطي تقديم وتعليق: د. مصطفى ديب البغا، ط3، 1411 هـ - 1991م، دار ابن كثير، دمشق، بيروت
2. Qur'onshunoslikka oid ilmlar [Matn] / A. Abdullayev [va boshq.]; mas'ul muharrir I. Usmonov; Toshkent islom universiteti, Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. – Toshkent: «Movarounnahr», 2016. –160 b
3. Qur'on ilmlari/ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf – Toshkent “Hilolnashr” nashriyot matbaasi, 2017.-504 b
4. <http://old.muslim.uz/index.php/kutubxona/item/19402-ur-on-ilmlari-sababi-nuzul-ilmi>